



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O‘ZGARISHI VAZIRINING BUYRUG‘I

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-oktabrdagi
648-son qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyatiga raqamlashtirishni keng joriy etish hisobiga boshqaruv shtat birliklari sonini maqbullashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 4-oktabrdagi PF-178-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 16-oktabrdagi 648-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 16-oktabrdagi 648-son qarori (keyingi o‘rinlarda – qaror) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorning 1-ilovasiga muvofiq quyidagilarni nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin:

Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligining (keyingi o‘rinlarda – Agentlik) maqomi, tizimi, asosiy vazifalari va funksiyalari;

Agentlikning huquqlari va javobgarligi;

Agentlik rahbarlarining asosiy funksional vazifalari hamda javobgarligi;

Agentlik faoliyatini tashkil etish, uning respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish tartibi;

Agentlik va uning hududiy bo‘linmalari faoliyatini moliyalashtirish, xodimlarni moddiy rag‘batlantirish tartibi.

3. Quyidagilar:

Agentlikning tashkiliy tuzilmasi va markaziy apparati tuzilmasi
1 va 1a-ilovalarga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi, viloyatlar va Toshkent shahar hududiy

ASLIGA TO‘G‘RI

boshqarmalarining tuzilmasi **2** va **2a-ilovalarga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Agentlik (Hasanov):

Moliya-iqtisod boshqarmasi (Mamasoliyev) bilan birgalikda **10 kun muddatda** Agentlik markaziy apparati va hududiy bo'linmalarining shtatlar jadvalini ishlab chiqish va belgilangan tartibda Iqtisodiyot va moliya vazirligiga kiritish;

qaror asosida Agentlik va uning hududiy bo'linmalari faoliyatini tashkil etish hamda Agentlik hududiy bo'linmalarining nizomlarini qayta tasdiqlash;

Agentlikka yuklatilayotgan vazifa va funksiyalardan kelib chiqib, shtat birliklari qisqartirilayotgan xodimlarni amaldagi mehnat qonunchiligiga ko'ra Agentlik va uning tizim tashkilotlaridagi bo'sh ish o'rinlariga joylashtirish;

ikki oy muddatda qarorda belgilangan tartibda Agentlikning hududiy bo'linmalarini hududlardagi Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga tegishli bo'sh turgan ma'muriy binolarga operativ boshqarish huquqi asosida bepul joylashtirish;

Jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi (Axborot xizmati) (Raxmanbayeva) bilan birgalikda qarorning mazmun-mohiyati va ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazish hamda OAV va ijtimoiy tarmoqlarda yoritish choralari ko'rsin.

5. Xo'jalik ishlari bo'limi (Xamidullayev) **bir oy muddatda** Agentlikni Internet jahon axborot tarmog'i va telefon aloqasi xizmatlari, shu jumladan, Hukumat telefon aloqasi bilan belgilangan tartibda ta'minlash choralari ko'rsin.

6. Agentlik (Hasanov) 2026-yil 1-yanvardan boshlab Qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarga ko'rsatilgan xizmatlar uchun undirilgan to'lovlar hisobidan sanitar tozalash korxonalari, chiqindilarni qayta yuklash stansiyalari, chiqindi poligonlari, chiqindilarni yoqish zavodlari hamda ekosanoat zonalarida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlariga haq to'lash tartibi to'g'risidagi nizom asosida hisob-kitob qilish tartibi joriy etilishini ta'minlasin.

7. Agentlik (Hasanov) va Yuridik ta'minlash va tartibga solish ta'sirini baholash boshqarmasi (Toshov) **ikki oy muddatda**, zaruratga ko'ra, tegishli idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni qarorga muvofiqlashtirsin.

8. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirining 3-ilovaga muvofiq ayrim buyruqlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

9. Devonxona (Yuldashev) ushbu buyruqni vazirlikning tegishli tarkibiy bo'linmalariga ma'lumot va ijro uchun yetkazsin.

10. Buyruq ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari I. Qutbiddinov zimmasiga yuklansin.

Vazir

2025-yil "18" - noyabr
426 - son




A. Abduxakimov

ASLIGA TO'G'RI

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish
va iqlim o'zgarishi vazirining
2025-yil 18.09.2025dagi 406-son buyrug'iga
ilova

**O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi
Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi markaziy apparati
TUZILMASI**




Boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni – **69 nafar**, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar soni o'rnatilgan me'yorlarga muvofiq belgilanadi.

ASLIGA TO'G'RI

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish
va iqlim o'zgarishi vazirining
2025-yil 18 noyabrdagi 126 -son buyrug'iga
1-ilova


**O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim
o'zgarishi vazirligi huzuridagi Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni
rivojlantirish agentligining
TASHKILIY TUZILMASI**



ASLIGA TO'G'RI

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish
va iqlim o'zgarishi vazirining
2025-yil 18 noyabrdagi 126 -son buyrug'iga
2-ilova

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni
rivojlantirish agentligining namunaviy
TUZILMASI**




Boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni – 11 nafar, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar soni o'rnatilgan me'yorlarga muvofiq belgilanadi.

ASLIGA TO'G'RI

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish
va iqlim o'zgarishi vazirining
2025-yil 18 noyabrdagi 426 -son buyrug'iga
2a-ilova

**Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi
viloyatlar va Toshkent shahar hududiy boshqarmalarining namunaviy
TUZILMASI**



Boshqaruv xodimlarning umumiy cheklangan soni — 11 nafar, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar soni o'rnatilgan me'yorlarga muvofiq belgilanadi.

**Toshkent shahar hududiy boshqarmasida Qarzdorliklar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassis shtati mavjud emas, boshqarma boshqaruv xodimlarining umumiy soni — 10 nafar etib belgilanadi.*


ASLIGA TO'G'RI

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim
o'zgarishi vazirining 2025-yil 18 -noyabrda
426 -son buyrug'iga
3-ilova

**Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi
markaziy apparati va hududiy bo'linmalari shtat birliklari cheklangan soni**

T/r	Bo'linma	Jami boshqaruv shtat birliklari soni
	Agentlik	222
	<i>Shundan:</i>	
1.	Agentlik markaziy apparati	69
2.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi	11
3.	Andijon viloyati chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasi	11
4.	Namangan viloyati chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasi	11
5.	Farg'ona viloyati chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasi	11
6.	Surxondaryo viloyati chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasi	11
7.	Qashqadaryo viloyati chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasi	11
8.	Navoiy viloyati chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasi	11
9.	Buxoro viloyati chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasi	11
10.	Sirdaryo viloyati chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasi	11
11.	Jizzax viloyati chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasi	11
12.	Samarqand viloyati chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasi	11
13.	Toshkent viloyati chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasi	11
14.	Toshkent shahar chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasi	10

ASLIGA TO'G'RI



Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim
o'zgarishi vazirining 2025-yil 18-noyabrdagi
426-son buyrug'iga
3a-ilova

**Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirining
o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanayotgan ayrim buyruqlari
RO'YXATI**

1. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirining 2024-yil 16-oktabrdagi 410-son buyrug'iga 1, 1a, 2 va 2a-illovalar;
2. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirining 2025-yil 23-iyundagi 203/1-son buyrug'i;
3. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirining 2025-yil 28-avgustdagi 311-son buyrug'i.

ASLIGATO'G'RI

